

KATTA VA KICHIK YOSHDAGI INSONLARDA AGRESSIVLIKNI  
PSIXOLOGIK JIHATDAN O'GANISH

Bozorova Ro‘zigul Xurramovna  
*TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti*  
*Amaliy psixologiya yo‘nalishi*  
*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada insonlarda uchraydigan agressivlik holatlari va uning oldini olish bo‘yicha mulohaza yuritiladi. Ayniqsa, hozirgi rivojlanib borayotgan murakkab davrda agressivlikning qay darajada ekanligi, uning bolalar hayotidagi oqibatlari haqida ham fikr yuritiladi. Shu bilan birga, agressivlikning oldini olish borasida ham qarashlar mavjud.*

**Kalit so‘zlar:** *Agressivlik, ijtimoiy muhit, sotsiogenetik, biogenetik, frustratsiya, regetlik, apatiya, abulya, korreksiya, reproduktiv, tafakkur, empatiya, hissyot, konsultatsiya, simpatiya.*

**Annotatsion:** *This article discusses the cases of aggression in humans and its prevention. In particular, the level of aggressiveness and its consequences in children’s lives will be discussed in the current developing complex era. At the same time, there are views on the prevention of aggression.*

**Key words:** *Aggressiveness, social environment, sociogenetic, biogenetic, frustration, reticence, apathy, abuse, correction, reproductive, thinking, empathy, feeling, consultation, sympathy.*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются случаи агрессии у человека и ее профилактика. Особенno в нынешний развивающийся сложный период также обсуждается степень агрессивности и ее последствия в жизни детей. Вто же время существуют взгляды на предотвращение агрессии.

**Ключевые слова:** Агрессия, социальная среда, социогенетика, биогенетика, фрустрация, сдержанность, апатия, абулия, коррекция, репродуктивность, мышление, емпатия, чувство, консультация, сочувствие.

Insonlarning individual ko‘rinishlaridan biri agressivlik holatidir. Agressivlik holati ko‘pincha shaxslararo munosabatlarda o‘z aksini topadigan asosiy xulq-atvor ko‘rinishidir. Agressiya so‘zining ma’nosiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, agressiya insonlarga yoki ma’lum insonlar jamlanmasiga qaratilgan salbiy hatti-harakatlar majmuasi hisoblanadi. Ayni zamoni aviyashib borayotgan bugungi davrda agressivlik munosabatini o‘rganish juda muhim

sanaladi. Bu dunyo bo'yicha jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Agressivlikni ko'pincha menga bog'liq bo'limgan holat deb hisoblaydigan insonlar ham topiladi. Biroq, turli faoliyatlarda, masalan, vaziyat bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda namoyon bo'lishini hisobga olmaydi. Ba'zida kundalik hayotimizda ham bu narsa yaqqol namoyon bo'ladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, insonlarning bunday holatlari o'zaro munosabatlarning nizoli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xuddi shuningdek, asossiz kelishmovchiliklarni ham keltirib chiqaradi.

Birgina, agressivlik atamasi keng ko'lamda qo'llaniladi. Uni bir so'z bilan atagan holda bir tomonlama tushuntirib bo'lmaydi. Uning ko'rinishlari turli voqeliklar bilan bog'liq, shuningdek, barchada individual ko'rinishga ega. Albatta, biror bir agressevlik holatidagi insonni ta'riflamoqchi bo'lsak, uning qo'polligi, o'zini noo'rin tutishini aytib o'tamiz. Buning barchasi salbiy fikrlarni qamrab oladi. Agressivlikni tushuntirishda dastlabki qarashlar G.Merriy, Z.Freyd, U.Markdugal va boshqa olimlarning ishlari bilan bog'liq. Buni tushuntirishda ular insonlar va hayvonlardagi tafovutlarni ham keltirib o'tishadi. Shuningdek, bu holatni hayvonlarning instincti bilan ham bog'liq deb tushuntirib o'tadi. Bu holat xx asrdan boshlab tadqiq etila boshlangan.

Agressivlik jarayonlarini o'rganishda ular frustratsiya jarayoni bilan ham bog'lab tushuntiradilar. Ular frustratsiyani o'rganib shu xulosaga keladiki, har qanday agressivlikni frustratsiya oqibati sifatida tushunish mumkin. Bu hulosaga birinchi bo'lib, J.Dolland ilgari suradi. Shunga qaramay, bu yondashuv oxirigacha o'rganilmadi, vaholangki, tasdig'ini ham topmadи. Agressivlik globallashuv davrida yanada rivojlanib ko'plab insonlarda o'z aksini topmoqda. Biroq, bunga barcha munosabatlarni ham krita olmaymiz. Chunki, insonlar bir - biriga bunday holatni namoyon etar ekan suhabatdoshining muomalasidan kelib chiqqan holda ularga javob qaytarishi mumkin. Agressivlikni ko'plab olimlar boshqalarga ziyon yetkazish deb hisoblaydi. Bu bo'yicha yana bir nazariya mavjudki, bu L.Berkovichning sotsiologik bilimlarga qaratilgan nazariyasi hisoblanadi. Uning aytishicha aggressiyaning kelib chiqishiga o'z maqsadini amalga oshirishdagi boshqalar bilan bog'liq kelishmovchiliklar sabab bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. Bu nazariya kognitiv jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan hozirgi muhim nazariya hisoblanadi. Bu nazariya bo'yicha agressivlik quyidagicha paydo bo'ladi va o'zini namoyon qiladi:

1. Inson o'zining agressivligini to'g'ri deb baholashi.
2. Frustratsiya jarayonining mavjudligi va uning kuchli ifoda etilishi

3. Insondagi stress holatidagi faoliyatida emotsiyaning qo‘zg‘alish darajasining rivojlanishi va kuchliligi

Yana bir nazariya asoschilari R.Krachfeld va N.Livson hisoblanadi. Ular agressivlikni o‘rganishda ikkita mutanosib jihatlarni aytib o‘tadi. Bunda ularning bиринчи ко‘риниши бу xulq-atvorga bog‘liq holda namoyon bo‘лади. Bunda, uning ko‘rinishlari xulq-atvorida yaqqol sezilib turadi. Uning ko‘rinishi har bir muloqot jarayonida namoyon bo‘lib boradi. Ikkinchi jihatida ko‘rinishi insonning o‘z niyatlari bilan bog‘liq hisoblanadi, ya’ni insonni biror-bir narsaga undab turuvchi, ko‘rib bo‘lmaydigan kuch hisoblanadi. Agressevlikning kelib chiqishi, ko‘pincha, bolalik paytdagi zarur bo‘lgan ehtiyojlarning qoldirilmasligidan ham kelib chiqishi mumkin. Negaki, bolalikdagi e’tiborning kamligi, uning zarur bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklari ham sabab bo‘lishi mumkin. Ba’zan bolalar uchun vaqt topolmaydigan ota-onalarning ularga bo‘lgan salbiy munosabatlarida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari bolalarga qo‘pol munosabatda bo‘lish, ularning kerakli istaklarini inobatga olinmasligi, ularning ota-onasi tomonidan tashlab ketilishi holatlarida ham bolalarda agressevlikning boshlanishi uchun asos bo‘lgan belgilar shakllanib boradi.

Buyuk ajdodlarimizdan Abu Ali Ibn Sino, Al-Farobi, Rumiy asarlarida ham bolalikdagi tarbiyaga e’tibor masalalarini ko‘rish mumkin. Insonning rivojlanishining dastlabki bosqichi hisoblangan bolalikdagi har bir ijobjiy sifatlar muhim manba hisoblanadi. Bolalariga yoshligidan e’tibor bermasdan ular ulg‘aygandan so‘ng farzandim aytganimni qilmayapti, farzandim o‘qimayapti deb nolib qoladigan ota-onalar ham yo‘q emas. Binobarin, bu o‘zining bee’tiborligining oqibati ekanligini o‘ylab ham ko‘rishmaydi. Shuningdek, ota-onasi tashlab ketgan bolalar ham o‘zlariga ishonmaydigan, ikkilanuvchan, qat’iyatsiz bo‘lib ulg‘ayishlari mumkin. Ularda ota-onasiga nisbatan salbiy bo‘lgan sifatlar ham shakllanib boradi. Ularning ich-ichida ota-onasiga bo‘lgan gaplari va savollari to‘planib qoladi. Biroq, ularni ko‘ra olmaganliklari sababli yuraklarida alamzadalik hissi paydo bo‘лади. Shuning uchun, ular ba’zida agressevlik holatini o‘zlari bilmagan holda boshqalarga namoyon etib qo‘yishlari mumkin. Shuningdek, bolalarga bepsand qarash, ularning qiziqishlarini mensimaslik, ularga qo‘pol munosabatda bo‘lish, dag‘al gapirish ham ularda dushmanlik munosabatining shakllanishiga olib kelishi mumkin. Insonlarning har bir holatini o‘rganar ekanmiz, avvalo, psixolog sifatida ularning uzoq va yaqin o‘tmishi bilan aloqador bo‘lgan hayoti bilan tanishish muhim sanaladi. Shuni ta’kidlab o‘tish zarur-ki, insonlardagi har qanday holat, xoh u salbiy, xoh ijobjiy holat bo‘lsin insonning bolaligi, atrof-

muhit ta'siri va shu bilan birga sharoiti bilan aloqador hisoblanadi. Djan Peaje ham insonning butun hayotini uning 3 yoshgacha bo'lgan bolalik davridagi jarayonlari belgilab beradi deb fikr bildiradi. Insonlar uchun ko'pincha biror bir faoliyatni amalga oshirish jarayonida bolalik davrida qay darajada qo'llab-quvvatlanganligi ham hisobga olinadi. Bunday insonlar biror bir ishni amalga oshirishda dadillik, o'zgacha g'ayrat, shijoat bilan bilan bajaradilar. Ba'zi hollarda bu kabi holatlar ham uchraydiki, bolaligida zarur ehtiyojlarini qondirilmagan bolalarda ham ijobiy holatlarni ko'rish mumkin. Buni qanday tushunish mumkin degan savollar tug'ilishi mumkin. Bu savolni ko'plab qarashlar orqali ham tushuntirish mumkin. Buni bolalarning biogenetic, sotsiogenetik tomondan amalga oshiriladigan jarayonlariga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Undagi belgilar shuni ko'rsatadiki, ulardagi agressivlik holati ma'lum miqdorda bo'lganligi bilan, biroq, uning o'rnini egallovchi ijobiy sifatlarning keyinchalik shakllanishi bilan ham bevosita aloqador bo'lishi mumkin. Xususan, butun jamiyat kishilarida uchraydigan har bir jarayon bir-biriga ta'sir etmay qolmaydi. Har bir jarayonning o'ziga xos ahamiyatli taraflari mavjud. Shuni ham hisobga olish kerakki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda agressevlikni o'rganish, shuningdek, bunday holatlarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik eng muhim muammolardan biri sanaladi. Agressevlikning ham turli darajalari mavjud. Uning eng quyi ko'rinishi bir insonning boshqa insonga bo'lgan qo'pol munosabatida namoyon bo'lsa, eng yuqori darjasasi, ya'ni patologik ko'rsatgichi jinoyat bilan ifodalanadi. Shuni unutmaslik kerakki, uning eng kichik ko'rinishi ham uning patologik jihatining rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin. Uning amalga oshishi salbiy natijalar yaratilishi uchun bir asos bo'lishi mumkin. Bu boradagi zarur ma'lumotlarni ko'rib chiqish, uning shakllanishidagi muhim sifatlarni o'rganish va ular oqibatida ro'y beruvchi muammolarni belgilash eng muhim sanalgan vazifalardan hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. E.E.G'oziyev. "Ontogenez psixologiyasi"- Nazariy eksperimental tahlili. Toshkent-Monografiya – 2010
2. O.Sodiqova, S.Madaliyeva- "Psixologiya"-Toshkent – 2010
3. Davletshin.M.G – "Zamonaviy mакtab o'quvchisining psixologiyasi " Toshkent – 1999
4. Umumiy pedagogika "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018
5. Fazliddin Ikroruddin – Nikoh va oila risolasi, Toshkent 2004

6. Muhiddinova D & Saydaliyeva M. (2023), RELIGIOUS BELIEFS AS AFAKTOR OF PERSONAL PSYCHOLOGIKAL AND PSYCHOLOGIKAL HEALTH. International Bulletin of engreening and technology.
7. X.G Sharafiddinova – Umumiyl psixologiya, Toshkent 2022/